

**HOZIRGI ZAMON MAHALLIY TIJORAT KOMPANIYALARINING  
OG’ZAKI NUTQ MADANIYATI**

*Xolisova Gavxaroy Mannobjon qizi*

*f.f.f.dok dotsent*

*Yo ’ldashova Go’zal Rustam qizi*

*Roman-german va slavyan tillari fakulteti*

*Kompyuter lingvistikasi yo ’nalishi 1- bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:**

Bu mavzu bugungi kunda tijorat sohasidagi muhim masalalardan biriga bag’ishlangan bo’lib , unda mahalliy kompaniyalarning og’zaki nutq madaniyati, mijozlar bilan muloqotda nutqning roli va uning samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi .Tadqiqot davomida xodimlarning nutqiy malakalarini oshirish,muloqotning ijtimoiy-madaniy jihatlari va tijorat etikasi bilan bog’liq masalalar ko’rib chiqiladi.

**Kalit so’zlar:** og’zaki nutq, tijorat, nutqiy malaka,nutq madaniyati, xushmuomalalik ,muloqot .

Ma’lum bir tilning muayyan davriga xos bo’lgan nutqiy me’yorlarga amal qiluvchi fikrni aniq ,lo’nda, izchil, ta’sirchan bayon etuvchi nutq madaniy nutq sanaladi.Demak nutq madaniyatining o’rganish obyekti madaniy nutq hisoblanadi.

**OG’ZAKI NUTQ:** Og’zaki nutq bu insonlar orasidagi eng tabiiy va samarali muloqot vositasi bo’lib xizmat qiladi.Uning diologik nutq , monologik nutq , erkin og’zaki nutq , rasmiy og’zaki nutq kabi turlari mavjud.

Diologik nutq:ikki yoki undan ortiq shaxslar o’rtasida sodir bo’ladigan muloqot.

Monologik nutq: bir kishining uzluksiz va mustaqil gapirishi.Masalan:ma’ruza, chiqishlarda.

Erkin og’zaki nutq:Norasmiy suxbatlarda qo’llaniladi.

Rasmiy og’zaki nutq:Ma’lum qoidaga , adabiy til me’yorlariga mos keladigan nutq turidir.

Masalan: rasmiy yig’inlar , biznes muzokaralarda.

Og’zaki nutqning asosiy unsurlari bu:

Talaffuz:So’zlarning to’g’ri aytilishi, ohang va urg’ularni to’g’ri qo’llashdir .

Intonatsiya:Gapni mazmunli qilish uchun ovoz balandligi va ohangning mos ravishda o’zgarishi.

Lug’at boyligi: O’g’zaki nutq mazmuni so’z boyligi bilan boyitiladi.

Og’zaki nutqning madaniyati bu – og’zaki nutq me’yorlariga rioxalish, xushmuomalalik hamda keraksiz so’zlarni cheklash.

Bugungi kunda og’zaki nutq ko’p narsalarni hal qiladi.

Masalan:

Ta’lim va ilmiy jarayonlarda bilimli, samarali yetkazish vositasi sifatida ishlataladi.

Shaxsning madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi.

Og’zaki nutqni rivojlantirish uchun ko’plab kitoblar mutolaa qilish, nutq mashqlarini bajarish lozim.

### **MAHALLIY TIJORAT KOMPANIYALARINING OG’ZAKI NUTQ MADANIYATI**

Mahalliy tijorat kompaniyalarida og’zaki nutq madaniyati mijozlar bilan aloqa , hamkorlar bilan muzokaralar va ichki jamoa faoliyatining muvaffaqiyatiga kata ta’sir ko’rsatadi.

Og’zaki nutq madaniyatining asosiy tamoyillari:adabiy til qoidalariga rioya qilish, so’zlashuvda Grammatik jihatdan to’g’ri ,adabiy tildagi so’zlardan foydalanish .Bu kompaniya xodimlarning madaniyat darajasini namoyon etib beradi.Yana qo’shimcha qiladigan bo’lsak, hurmat va xushmuomalalik mijoz va hamkasblar bilan gaplashishda doimo hurmat ohangini saqlash aniqlik va lundalik .Nutq ortiqcha gaplardan holi , maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi kerak.Mahalliy tijorat kompaniyalarining og’zaki nutq madaniyatini yaxshilash uchun quyidagi omillarini joriy etish kerak.

Maxsus treyninglar:Xodimlar uchun og’zaki nutqni rivojlantirish uchun maxsus treyninglar tashkil qilish .

Tinglash ko’nikmalarini rivojlantirish:Xodimlar mijozni tinglash va uning talablarini to’g’ri tushunish qobiliyatiga ega bo’lishi .Ikki va undan ortiq tillarda muloqotga ega bo’lish:Zaruratga ko’ra o’zbek, rus va boshqa tillarda ham muloqotga ega bo’lish .

Xozirgi zamonda nutq yuzasidan muammolar shundaki, turli xil tillarni birgalikda ishlatish, tilga e’tiborsizlikdir.

Masalan: tillarni birgalikda ishlatish, o’zbek va rus tillarining chalkash holda qo’llanilishi muloqotni qiyinlashtiradi.Talaffuzdagi xatolarni yoki jargonlar, „PARAZIT” so’zlardan foydalanish hozirgi zamondagi muammolardandir.Yana qo’shimcha qiladigan bo’lsak yozma va og’zaki nutqni ajaratib bilmaslik,to’g’ri talaffuz qoidalariga rioya qilmaslik,sheva va jargonlardan foydalanish muloqot samaradorligiga putur yetkazmoqda.

#### **44XULOSA:**

Xulosa shundaki og’zaki nutq madaniyati hayotimiz davomida o’ta kerakli vositadir.Og’zaki nutq madaniyati insonning madaniyati va ma’naviyat ko’zgusidir. Tijorat kompaniyalari uchun ham bu madaniyat mijozlar bilan muvoffaqiyatli muloqot qilish va kompaniya obro’sini oshirish uchun vositadir.

Xodimlarning adabiy tilda aniq, xushmuomala va samimiyl gapireshi mijozlarda ishonch uyg’otadi.

Kompaniya xodimlarining adabiy tilga rioya qilishi , xushmuomalaligi korxonaning muvoffaqiyatini ta’minlovchi muhim omildir.